

namoyish etar ekan, Minecraft muxlislari jamoasi har bir sonda taqdim etish uchun ajoyib misollarni tanlab, keyingi o'yinlarini ilhomlantiradi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida nashr etiladigan va uzoq galaktikani o'rganishga mo'ljallangan bolalar uchun eng yaxshi jurnal "Lego Star Wars" sanaladi. Qiziqarli komikslardan tortib, ajoyib sovrinlarga ega mazkur jurnal xuddi boshqa dunyodan 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun har bir sonda jumboqlar, o'yinlar, komiksli hikoyalar, afishalar, tanlovlar va hatto muqovali Lego o'yinchoqlari bilan to'la. Jurnalda soatlab o'yin-kulgi qilish uchun ko'plab ajoyib va kreativ materiallar berib boriladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bolalar adabiyoti va matbuot nashrlarida materiallarni bolalarga taqdim etishdan oldin o'zbek tilining izohli va imlo lug'atiga kiritilgan so'zlar (so'zlar banki)ni bolalarning yoshi, tushunish darajasiga muvofiq tarzda tasniflash, bolalar uchun yozilgan matnlarning o'qishlilik darajasini (readability) aniqlovchi, yosh kategoriyalarini belgilovchi va bunday matnlarni o'qib tushunishni baholovchi mezonlarni ishlab chiqish lozim. Menimcha, shundagina hozirgi kundagi eng og'riqli muammolarning yechimiga yo'l topiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзаева Н. А. (2023). Болалар аудиториясига мўлжалланган журналистик асарларда коммуникатив-прагматик ёндашув. Markaziy Osiyoda media va kommunikatsiyalar xalqaro jurnali, (1).
2. Mirzayeva N. A. (2024, January). Zamonaviy bolalar nashrlarida sarlavhaning psixolingvistik aspekti va roli. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 4, pp. 242-245).
3. Quronov S. https://t.me/bolalar_yozuvchisi
4. <https://journeytokidlit.com/story-editing-services#last-call-timer>

GAZETA DISKURSI: VAZIFALAR VA KONSTRUKTIV TAMOYIL

Shahodat USMONOVA
O'zDJTU dotsenti, (PhD)

Annotatsiya. Maqolada gazeta diskursining keng ommaga, individual ong va xatti-harakatga axborot orqali ta'sir qilishi, muayyan vazifalarni bajaradigan va o'ziga xos

xususiyat hamda belgilarga ega bo'lgan mustaqil diskurs turi ekanligi bayon etilgan. Gazeta janrlarining bahs-munozaralar va boshqalar bilan bir qatorda, ekstralingvistik va lingvistik xususiyatlarni o'z ichiga oluvchi nutqiy janrlardan biri ekanligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ommaviy auditoriya, konstruktiv tamoyil, mavhumlik, mantiqiylik, hissiylik, adresant, ekstralingvistik va lingvistik tahlil.

Ommaviy axborot vositalari globallashib borayotgan dunyoning eng muhim institutlaridan biridir. Ular funksional xususiyatga ko'ra, turli vazifalarni bajaradi: axborot yetkazadi, ma'lumot beradi, ko'ngilochar dasturlari orqali insonlarga ma'naviyat va ma'rifat ulashadi, har xil mahsulotlarni reklama qiladi, targ'ibot ishlarini amalga oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-madaniy jarayonlarni o'zida aks ettiruvchi muhim aloqa vositadir.

OAV orasida eng qadimiysi hisoblangan gazeta bugungi hayot va jamiyatning dolzarb masalalari hamda hodisalarini yoritib, muhim siyosiy-mafkuraviy o'rin egallashda davom etib kelmoqda. Darhaqiqat, gazeta eng muhim ommaviy axborot vositalaridan biridir. Qolaversa, matbuot audiovizual axborot vositalariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Masalan, radio va televideniya bilan farqli o'laroq, o'quvchiga sodir bo'layotgan voqealarni o'zi uchun qulay tezlikda kuzatishga imkon beradi: istalgan vaqtda va istalgan joyda muxlis gazetani o'qishi mumkin. Bundan tashqari, Internetning keng tarqalishi deyarli barcha gazetalar va televideniyaning samaradorligi hamda vizualligi oshirish uchun bu OAVlarning elektron versiyaga ega bo'lishiga olib keldi.

Hozirgi vaqtda gazeta nutqi muayyan vazifalarni bajaradigan va o'ziga xos xususiyat va belgilarga ega bo'lgan mustaqil diskurs turi hisoblanadi. Uning asosiy funksiyalari orasida axborot beruvchi va ta'sir qiluvchi vazifalarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Ko'ngilochar va boshqa xususiyatlari esa ikkinchi darajali vazifalarga kiradi. Umuman olganda, gazeta diskursining umumiy konstruktiv tamoyili – bu faktlarga asoslangan aniqlik, umumiylik, majoziylik, ba'zi hollarda mavhumlik, mantiqiylik va hissiylik birlashuvining o'zaro integratsiyasi va fikrlar almashinuvi jarayonidan iboratdir.

Shu bilan birga, gazetaviy diskursning ko‘pgina xususiyatlari uning adresatining tabiati bilan bog‘liq. Gazeta uning qiziqishlari, xabardorlik va intellektual darajasi, umumiy va maxsus tayyorgarligi, yoshi va boshqalar jihatidan benihoya xilma-xil bo‘lgan ommaviy auditoriya bilan bog‘liq ravishda ishlaydi. Qolaversa, gazeta tili yuqori darajadagi dialogizm bilan ajralib turib, bu adresatda muallif bilan doimiy muloqotda bo‘lish hissi va uning fikri hisobga olinayotganlik illyuziyasini yaratadi.

Gazeta diskursi nafaqat ma’lumotni yetkazish, balki jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan. U kommunikativ vosita sifatida auditoriyaga u yoki bu madaniyat yoki xulq-atvor stereotiplari bilan tanishish imkonini beradi. Shunga ko‘ra, gazeta diskursining ta’sir qilish funksiyasi axborot orqali, o‘quvchining qadriyatlar, e’tiqodlar va ijtimoiy muloqot tizimidagi o‘zgarishga munosabatini va uning fikrlash va xatti-harakatlarini ma’lum bir yo‘nalishda “qo‘zg‘atish” xarakteriga ega.

Gazeta diskursining asosiy xususiyatlari orasida ta’sirchanlik va standart birligini ajratib ko‘rsatish mumkin. Yuqori standartlashtirish, birinchi navbatda, bayon etishning hujjatlilikiga intilishga, mavzularning takrorlanishiga, materiallarni tayyorlashda tezkorlikka asoslangan. Bu haqda Sh. Balli ham shunday ta’kidlagan edi: “Gazeta tili klisheelarga to‘la – biroq boshqacha bo‘lishi mumkin emas, siyqasi chiqqan iboralarga murojaat qilmasdan tez va to‘g‘ri yozish qiyindir” [Balli 1961:109].

Ifodani standartlashtirish turli darajadagi til vositalarining takrorlanuvchanligini rivojlantirishiga olib keladi. Leksik darajada – bu terminologik so‘z va iboralardan, morfologik darajada - nutq bo‘laklari, zamonlar va mayllardan, sintaktik darajada – ma’lum til birliklari va lisoniy tuzilmalardan foydalanish imkonini beradi.

Gazeta diskursidagi ekspressivlik jamoatchilik fikrini shakllantirish maqsadida adresatga ta’sir qilish uchun mo‘ljallangan. Unga barcha darajadagi til vositalaridan keng foydalanish va ularning o‘zaro ta’siri orqali erishiladi. Ta’sirchanlik hissiyotni ifoda etish va uni baholash bilan chambarchas bog‘liq. Baholash funksiyasini gazetaga xos bo‘lgan voqelikka o‘z nomini, o‘z bahosini berish, ya’ni real kundalik voqealarni insoniy qadriyatlar miqyosiga olib kelishga moyillik sifatida ta’riflash mumkin. Bularning barchasi adresatga ta’sir qilishning yagona ko‘rinishidir.

Zamonaviy gazeta diskursida bir tomondan, muallifning nuqtai nazarini ifodalash, ikkinchi tomondan, bayon etishning ob'yektivligiga intilish aniq namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, birinchi va ikkinchi holatda ham matn muallifi matnda boshqa birovning nutqidan foydalanishi va shu bilan tasvirlangan voqelik ishtirokchilari bilan kommunikativ munosabatlarga kirishishi mumkin. Bunda, muallif stilining ifodalanish darajasi janrning farqlanishiga va uning qanchalik shaxsiy lisoniy didining yuqoriligiga bog'liq bo'ladi.

Matbuot paydo bo'lganidan buyon janrlar ham vujudga keldi. Voqelikka munosabat va uni aks etish usuli bu gazeta janrlari uchun muhimdir. Shuni ta'kidlash kerakki, gazetaviy janrlar kundalik suhbat, bahs-munozaralar va boshqalar bilan bir qatorda, ekstralingvistik va lingvistik xususiyatlarni o'z ichiga oluvchi nutqiy janrlardan biri sifatida ham ko'rib chiqiladi. Tilshunoslikda janrlarning quyidagi asosiy belgilari bor:

- pragmatik (maqsadlar, kommunikativ munosabatlar);
- muloqotdagi hamkorlarning maqomi va rollari (adresant va adresat);
- muloqot holati (joyi va vaqti);
- muloqotning tarqalish yo'llari (kanallar);
- semantik yoki tematik xususiyat;
- matn tuzilishi. [Adam 1997:13, 17].

Gazeta publisistikasining janr tasnifi ham jurnalistika, ham tilshunoslik nazariyasini o'rganish mavzusi hisoblanadi.

Shu bilan birga, janrlarning axborot va tahliliy toifalarga bo'linishi ham murakkab va ko'p qirrali jaryondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Usmonova Sh. A.. Bosma mediadiskurs tendensiyalari: standartlik va ekspressivlik. Monografiya. – Toshkent. – 2022. “Iqtisod-moliya” nashriyoti. – 134 b.
2. Balli Sh. Fransuzkaya stilistika. – M., 1961. – 109 s.
3. Fowler R. Language in the News: Discourse and Ideology in the Press. London: Routledge, 1991. – 254 p.

4. Mattheson D. Media Discourses: Analysing Media Texts. Issues in Cultural and Media Studies. Open University Press. 2005. – 224 p.

5. Montgomery M. Discourse of Broadcast News. A linguistic approach. Routledge. 2007. – 246 p.

6. Дадабаева Х., & Тешабаева, Д. (2024). Роль акта в формировании коммуникативной компетентности при обучении иностранным языкам курсантов военного образования. in Library, 3(3), 235–242. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/28409>

JURNALISTIKADA MEDIAMETRIK MATN TAHLILI INTERPRETATSIYASI

Madina NURUTDINOVA

*O'zJOKU Raqamli media va
internet jurnalistika kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya. Amerikalik sotsiolog Olim Gabriel Lassuelning shunday fikri bor “Istalgan kommunikatsiyaning uch asosiy vazifasi bor: ular atrofdagi voqelikni boshqarishga xizmat qiladi; turli ijtimoiy subyektlarning voqelikka munosabatini o'zaro bog'lash vositasidir; madaniyat va qadriyatlarning uzatilishini ta'minlaydi” aytib o'tilgan vazifalar internet OAVga ham tegishli bo'lib, uning tarixiy rivojlanishida bir qator o'ziga xos funksiyalarni shakllanishiga xizmat qildi. Ularning amalga oshishida muayyan mamlakatlardagi ijtimoiy iqtisodiy siyosiy vaziyat muqarrar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sir ko'rsatish quroli esa kontent vositasidir¹⁹. Tarixda ilk uzatilgan kontentlar matn formatida edi (birinchi uzatilgan matn bu LOG belgisi bo'lgan). Keyinchalik texnik taraqqiyotda kontekst rivojlanib multimedaviy birliklar, gipetakstual havolalar hamda turli yangi vazifalarni qamrab oldi. Endilikda uzatilayotgan matn nafaqat axborot vositasi balki boshqaruv quroliga ham aylandi. Shu boisdan kontentni yetarli darajada o'rganish va tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar. *Brending, mediametrik matn, onlayn-jurnalistika.kontent-tahlil, kontekst, onlayn-kontent, robotlashtirilgan dastur, sotsiologik tahlil usullari.*

Jadal rivojlanib borayotgan texnik taraqqiyot tufayli internet turli sohalar va fanlarni qamrab olmoqda. Shu boisdan ham kontentlarni o'rganish amaliyoti ham bevosita turli sohalarda bir qancha vazifalarga ega. Kontent - tahlil bu ma'lum bir kontekstni tadqiq qilish degan ma'noni anglatadi. Axborot nashrlarda bu matnga baho

¹⁹ http://socmedia.by/wp-content/uploads/2018/10/Лекция-3_Медиаметрия-и-рейтинги-СМИ.pdf